

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

12-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Hadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDAGI INNOVATSION ISLOHOTLARNING NATIJALARI.....	13-16
<i>Равшанов Махмуд</i> ЗАСЛУГИ АЛИШЕРА НАВОИ В ИЗУЧЕНИИ РАЗВИТИЙ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ	17-19
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> FARG'ONA VODIYSIDA HASHAR YO'LI BILAN QURILGAN GIDROINSHOOTLAR TARIXIDAN	20-24
<i>Jumaboyev Azizjon Sayfiddin o'g'li, Shenkar Michael</i> SHARQ MAMLAKATLARIDA MIRZO ULUG'BEK ILMIY MEROSINING O'RGANILISHI	25-30
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON–ROSSIYA ENERGETIK ALOQALARI TARIXI:LUKOYL MISOLIDA	31-36
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> OLIY TA'LIM VA ILMIY-TEXNIK HAMKORLIK: O'ZBEKISTON HINDISTON HAMKORLIGINING ILMIY SALOHİYATI VA ISTIQBOLLARI ...	37-40
<i>Aytmuratova Janilsin</i> FROM THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF ARCHAEOLOGICAL SCIENCE IN KARAKALPAKSTAN	41-44
<i>Toreniyazov Jalgas Yerjanovich, Rzaeva Manzura Abatovna</i> JANUBIY OROL BO'YI SHAHARLARI TARIXI BO'YICHA MANBALAR (SHARQ MANBALARI).....	45-49
<i>Baqoyev Umidjon Shuhrat o'g'li</i> ABBOS I VA VALI MUHAMMADXON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR	50-55
<i>Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li</i> ANDIJON VILOYATI SUV XO'JALIGI BIRLASHMASI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991-1996-YILLAR MISOLIDA).....	56-60
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> XOTIN-QIZLARNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI: TARIXIY JARAYON VA HOZIRGI TENDENSIYALAR	61-65
<i>Choriyeva Nargiza Ibotovna</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA TURIZM SOHASINING HUQUQIY ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	66-69
<i>Fayzullayev Oybek</i> O'RTA OSIYO XONLIKLAR TARIXINI O'RGANISH (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHIDAGI RUS MANBALARI ASOSIDA)	70-74
<i>Norboyev Ravshan Saydulla o'g'li</i> SHIMOLI-G'ARBIY BAQTRIYANING ELLINIZM DAVRI ARXEOLOGIK YODGORLIKLARI TIPOLOGIYASI	75-79
<i>Rajabova Nazira Shaxobovna</i> O'ZBEK XALQ AFSONALARIDA AYOL OBRAZLARINING TASVIRLARI	80-84

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Gabbarov Sabit Nietali'evich

QO'Y VA ECHKILAR BOSH SONINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA
PROGNOZLASH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
(QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANI MISOLIDA) 85-89

Xolmurotov Fozil

XORAZM VILOYATIDA EKSPORT NATIJALARI VA REAL SEKTOR
RESURSLARI O'RTASIDAGI KO'P O'LCHOVLI BOG'LIQLIK 90-103

Raximov Faxriddin Shavkatovich

TA'LIM TASHKILOTLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MARKETING
SAMARADORLIGIGA TA'SIRI 104-116

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Xoliqov Yunus Ortiqovich

YANGI O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO MADANIYATNI
YUKSALTIRISH STRATEGIYASI 117-121

Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi

JADIDLAR MEROSI VA ZAMONAVIY JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA
MA'NAVIY QADRIYATLARNING ROLI 122-128

Jumayeva Shaxlo Suyunovna

TALABALARDA INTELLEKTUAL MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI 129-133

Yazdonova Saxiba Kurbanovna, Sanaqulov Sardor Isaqulovich

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI BOSHQARISH METODIKASI 134-138

Danabayev Xurshid Napasovich

SPORT TURLARI VA FALSAFIY-ESTETIKANING DIALEKTIK TAHLILI 139-142

Shokirov Tohirjon

CHOLG'U SOZLARINING YOSHLARNING MA'NAVIY YUKSALISHIDAGI
O'RNI VA AHAMIYATI (DUTOR VA RUBOB SOZLARI MISOLIDA) 143-148

Raxmatov Alisher Obidovich

YANGI O'ZBEKISTONDA SHAXS ZAMONAVIY IJTIMOYIY JARAYONLARGA
INTEGRATSIYALASHUVINING FALSAFIY TAHLILI 149-152

Abduraxmanova Nodiraxon Xusnutdinovna

HUQUQIY MADANIYAT VA DEMOKRATIYA:
IJTIMOIY FALSAFIY YONDASHUVLAR VA KONSEPSIYALAR 153-158

Axatova Dildora Axtamovna

IBN SINONING "RISOLAYI FIL-HUZN" ASARINING FALSAFIY TAHLILI 159-163

Toshboboyev Maksud Jalilovich

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA SUN'IY INTELLEKT VA IJTIMOYIY JARAYONLAR
DIALEKTIKASI 164-168

Abdiyev G'ayrat Ergashevich

YANGI O'ZBEKISTON SIYOSIY AMALIYOTIDA YOSHLARNING IJTIMOYIY-SIYOSIY
FAOLLIGINING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI 169-174

<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA O'ZBEK YOSHLARINING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARIDAGI O'ZGARISHLAR	175-179
<i>Sodirjonov Muhridin Mahamadaminovich</i> RAQAMLI JAMIYATDA INSON KAPITALI RIVOJLANISHI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR.....	180-187
<i>Abduraxmonov Xasan Ibroximovich</i> YOSHLAR DUNYOQARASHIDA INNOVATSION TASHABBUSLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	188-192
<i>Norbo'tayev Islombek Musurmonovich</i> POSTHAQIQAT SIYOSATI: ALTERNATIV AXBOROT OQIMLARI ORQALI DEZINFORMATSIYA	193-198
<i>Ergashev Alijon Boxodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING TRANSFORMATSIYASI.....	199-203
<i>Elmuradova Surayyo Abdijalilovna</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA OTA-ONA VA BOLA MUNOSABATLARINING YANGI MODEL.....	204-207
<i>Bobamirzayev Abdulaziz</i> RAZIYY AD-DIN AS-SARAXSIY HAYOTI VA ASARLARI HAQIDA ILK MA'LUMOTLAR.....	208-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDAGI IJTIMOY O'ZGARISHLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR	212-216
<i>Do'snazarov Mirjalol Esanboy o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA HAYOT VA O'LIM MUAMMOSINING FALSAFIY-AXLOQIY MEXANIZMLARI	217-221
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> FALSAFADA INSON QADRI TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI VA GENEZISI	222-226
<i>Muhammadiyev Bekzod O'ktamjon o'g'li</i> VIRTUAL MULOQOTDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSIYASI VA UNING AXLOQIY JIHATLARI.....	227-231
<i>Kdirbaev Baxadir Berdaxovich</i> AXBOROT JAMIYATIDA MEDIA MADANIYATNING SOTSIOMADANIY TRANSFORMATSIYALARDAGI ROLI.....	232-237
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Mamadaliyeva Naibaxon, Orifboyev Abdulloh</i> O'ZBEK TILIDA "HALOL" VA "HAROM" LEKSEMALARINING ZAMONAVIY SEMANTIK, PRAGMATIK VA SOTSIOMADANIY TAHLILI.....	238-245

<i>Уринбаева Дилбар Базаровна</i> СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕСЕН УЗБЕКСКИХ И ТУРЕЦКИХ ПЕВЦОВ НА ОСНОВЕ КОМПЬЮТЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКИ: НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ	246-258
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СИНТАКСИЧЕСКИЙ СПОСОБ ВЫРАЖЕНИЯ ЗНАЧЕНИЯ СРАВНЕНИЯ И ЕГО ОСНОВНЫЕ СРЕДСТВА НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗОВ А.И. КУПРИНА	259-264
<i>Karimov Ulugbek Nusratovich</i> THE POETICS OF THE CHARACTERS' INNER WORLD IN "SPOOK COUNTRY"	265-269
<i>Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna</i> POSTMODERN NARRATIVE TECHNIQUES IN JOHN FOWLES' WORKS: AN INTERTEXTUAL, LINGUISTIC, AND AESTHETIC APPROACH.....	270-275
<i>Tokimbetova Gulbahor Abatbayevna</i> QORAQALPOQ MUMTOZ SHOIRLAR LIRIKASINING JANRIY-TEMATIK XUSUSIYATLARI	276-279
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	280-284
<i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i> YOLG'IZLIK FENOMENINING SEMANTIK SHAKLLANISHI VA UNING HISSIY TAJRIBADAGI IFODASI.....	285-290
<i>Bobojonov Dilshod Jumakul ugli</i> THE PRAGMATIC AND LINGUO-CULTURAL CLASSIFICATION OF NEWSPAPER HEADLINES.....	291-294
<i>Shamshetova Biybiayim Janibek qizi</i> LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIKDA ANTROPOSENTRIZM KONSEPSIYASI	295-302
<i>Xaitova Gulhayo Tovasharovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAKON VA ZAMON KATEGORIYASI DOIRASIDAGI YAQIN-UZOQ OPPOZITSIYASINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	303-307
<i>Mardanova Mohira Davron qizi</i> THE ROLE OF "THE FINANCIER" IN WORLD LINGUISTICS	308-311
<i>Khalilova Shohista Muhammadi qizi</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF UTOPIAN AND ANTI-UTOPIAN MOTIFS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE	312-315
<i>Davlatova Shahnoza Muhammadiyevna</i> SUD VA TERGOV MOTIVLARINING ADABIY FUNKSIYASI	316-319
<i>Rustamov Dilshodbek</i> NUTQIY MULOQOT TAVSIFI	320-323
<i>Musayev Akmaljon Ibrogimovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK DIPLOMATIK DISKURSIDA LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLAR VA TERMINOLOGIK TIZIMNING TALQINI	324-329
<i>Shamsuddinova Diyoraxon Yorqinbek qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK MEDIADISKURSINING LISONIY TAHLILI: TUZILISHI, XUSUSIYATLARI	330-333

<i>Numonova Mashxuraxon Qobiljon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "SUV/WATER" KONSEPTINING LISONIY MODELLASHUVI: NOMINATIV VA KOMMUNIKATIV MAYDONLARNING QIYOSIY TADQIQI	334-342
<i>Норкулова Шахло Абдугофур кизи</i> СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ОКРАСКА ПРОЗВИЩ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА КОММУНИКАЦИЮ ...	343-345
<i>Tursunova Javhar Bakir qizi</i> O'ZBEK TILINI LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH	346-350
<i>Xoshimova Mohigul Axmatovna</i> XIX-XX ASRLAR DOSTONCHILIGIDA ADABIY TA'SIR MASALASI	351-355
<i>Омонова Мадина Аслиддиновна</i> ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЛАКУНЫ УЗБЕКСКОЙ КУЛЬТУРЫ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: ПРОБЛЕМЫ НЕПЕРЕВОДИМЫХ КОНЦЕПТОВ	356-361
<i>Abdulkhakova Dilafruz Shamsiddinovna</i> PERSPECTIVES AND THEORETICAL APPROACHES TO FORMULAIC EXPRESSIONS	362-370
<i>Abduraimova Mahliyo Valijon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GAZ SANOAT TERMINLARINING SHAKLLANISH USULLARI.....	371-373
<i>Rajat Choudhary</i> LATIN: THE TIMELESS LANGUAGE OF MEDICINE	374-377
<i>Клеблеева Резеда Радионовна</i> МИФОПОЭТИКА КАК КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА ЛИТЕРАТУРНОГО ТВОРЧЕСТВА	378-381
<i>Irbutaeva Nigora, Ozodova Dilafruz, Xoliqova Sabina</i> RUS TILIDA SO'ZLASHMAYDIGAN TALABALAR UCHUN RUS TILI DARSLARIDA QO'SHIQ MATERIALLARIDAN FOYDALANISH	382-385
<i>Dilbarjonov Ismoiljon, Gavxaroy Isroiljon qizi</i> SPORT TERMINLARINING UMUMIY XUSUSIYATLARI	386-389
<i>Arapjonova Zebo Otabek qizi</i> THE IMPACT OF ACCENT AND PRONUNCIATION ON COMMUNICATION IN GLOBAL ENGLISH.....	390-394
<i>Qarshiyeva Muxarram Shuxratovna</i> THE ADAPTATION PROCESS OF TERMS BORROWED INTO UZBEK FROM RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGES.....	395-399

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich</i> JAMOAVIY MEHNAT NIZOLARINI HAL ETISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	400-407
<i>Zokirov Sherzod Ilxom o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI JORIY QILISH ORQALI MUROJAATLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	408-415
<i>Shermatov Nuriddin, Jamshidbek Ibrokhimov</i> SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV ISHLAB CHIQRISH (AM) INTEGRATSIYASI SHAROITIDA INSON HUQUQLARI HAMDA FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY MUAMMOLARI.....	416-428

<i>G'ulommamatova Parvina Akbarali qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KRIPTO-AKTIVLAR SOHASIDAGI JINOYATLARNI OLDINI OLISH VA TARTIBGA SOLISH BORASIDAGI XALQARO-HUQUQIY HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	429-435
<i>Djalilov Javoxir Abdumajitovich</i> ISBOT QILISHNING UMUMIY SHARTLARI MAZMUNI VA TASNIFLANISHI	436-443
<i>Normurodova Behro'za Xolmo'minovna</i> RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASHDA XALQARO TASHKILOTLARNING O'RNI.....	444-450
<i>Ismailov Bekjon Salixovich</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR MEHNAT HUQUQINI TA'MINLASHNING HUQUQIY KAFOLATLARI TAHLILI	451-456
<i>Mahmarahimov Ixtiyor Baxtiyorovich</i> DAVLAT XARIDLARI VA TENDER SAVDOLARIDA RAQOBATGA QARSHI XATTI-HARAKATLARNING HUQUQIY OQIBATLARI.....	457-463
<i>Almatov Sanjar Zokirovich</i> DINIY EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI.....	464-467
<i>Djuraev Farxod Eshboevich</i> JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDA TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI USULLARINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI.....	468-473
<i>Sadikova Dilafruz Radjabovna</i> O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH SOHASIDA SUG'URTA MEKANIZMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI.....	474-481
<i>Сайфиддинов Аклиддин Анваржон огли</i> МЕСТНОЕ ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ КЕНГАШЕЙ И ХОКИМИЯТОВ	482-488
<i>Olimov Abbosjon</i> SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYASI: TUSHUNCHASI, TURLARI VA TARIXIY RIVOJLANISHI.....	489-494

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIDA HISSIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY JIHATLARI	495-500
<i>Муталипова Мавлюда Жунайдуллаевна</i> НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ СУТЬ АКЦИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА	501-506
<i>Джуманиязов Фарход Улугбекович</i> РАЗРАБОТКА СИСТЕМЫ МЕТОДОВ И ПРИЁМОВ ОБУЧЕНИЯ, НАПРАВЛЕННЫХ НА РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ И КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ	507-510
<i>Kuvatova Nozima Baxtiyorovna</i> TA'LIM TIZIMIDA O'QITUVCHINING MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH	511-515

<i>Xudayberdiyeva Nilufar Bozorovna</i> TABIIY FANLARNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH TEKNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	516-519
<i>Pirimbetov Bxit Allabaevich</i> BO'LAJAK O'QITUVCHIDA PEDAGOGIK ARTISTIZMNING TARKIBIY QISMLARI	520-526
<i>Djalolov Furqat Fattohovich</i> TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA TO'LIQ O'ZLASHTIRISH TEKNOLOGIYASINING ROLI.....	527-531
<i>Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich, Eshmuratov Marat Tangatarovich</i> PEDAGOGICAL STRATEGIES AND THE INTEGRATION OF ICT IN TEACHING FOOD PHYSIOLOGY: INNOVATIVE APPROACHES IN HIGHER EDUCATION	532-538
<i>Habibullayeva Shoirra</i> O'ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING TAMOIYILLARI	539-542
<i>Abatov Jalğasbay Orınbaevich</i> TASVIRIY SAN'AT KOMPOZITSIYALARIDA RANGLARDAN FOYDALANISH USULLARI..	543-548
<i>Azzamov Yusuf Rajaboyevich</i> TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI RESURSLAR VA PLATFORMALAR: TAHLIL VA TASNIF.....	549-553
<i>Джумаева Зарина Бобохон кизи, Жаббарова Паризода Илхомжон кизи</i> МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ОТНОСИТЕЛЬНЫХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ	554-556

09.00.00 – FALSAFA FANLARI - PHILOSOPHICAL SCIENCES**Received:** 20 November 2025**Accepted:** 1 December 2025**Published:** 15 December 2025*Article / Original Paper***STRATEGY FOR PROMOTING INTERNATIONAL CULTURE IN NEW UZBEKISTAN****Kholikov Yunus Ortiqovich**

Professor of the Department of “Humanities and Information Technologies”

Samarkand State Institute of Foreign Languages,

Doctor of Philosophy (DSc)

Abstract. It is highlighted that the “Development Strategy” is a characteristic feature of the new Uzbekistan, which is to harmonize interethnic culture with reality on a large scale through a philosophical worldview, and to implement values that unite different nations into reality. The article scientifically studies its stability and prospects for a worldview that serves to ensure life, inspire young people, and spiritual uplift.

Keywords: ideal, thinking, progress, tendency, strategy, interethnic tolerance, development, civilization, foundation, humanity, resolution, stability, peace, security, peacekeeping.

YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO MADANIYATNI YUKSALTIRISH STRATEGIYASI**Xolliqov Yunus Ortiqovich**

Samarqand davlat chet tillar instituti

“Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari” kafedrası professori,

falsafa fanlari doktori (DSc)

E-mail: xolikovyunus88@gmail.com

Annotatsiya. Yangi O‘zbekistonda millatlararo madaniyatni falsafiy dunyoqarash orqali keng ko‘lamda reallik bilan uyg‘unlashtirish, turli millatlarni birlashtirgan qadriyatlarni voqelikka tatbiq etish “Taraqqiyot strategiyasi”ga xos xususiyat ekanligi yoritib berilgan. Maqolada uning barqarorligi hamda hayotni ta‘minlash, yoshlarga ilhom berish, ma‘naviy yuksaltirishga xizmat qiladigan dunyoqarashining istiqbollari ilmiy tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: ideal, tafakkur, taraqqiyot, tendensiya, strategiya, millatlararo bag‘rikenglik, rivojlantirish, sivilizatsiya, Turon, poydevor, insonparvarlik, rezolyutsiya, barqaror, tinchlik, xavfsizlik, tinchlikparvarlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I12Y2025N19>

Har bir davr o‘zining ideallariga mos falsafiy tafakkur darajasini madaniyatlar kesimida zamonga moslab, taraqqiyot yo‘nalishlarini belgilaydi. Yangi O‘zbekiston ham o‘z islohotlar konsepsiyasida jadal rivojlanish tendensiyalarini xalq manfaatlariga uyg‘un holda amalga oshirib, taraqqiyot strategiyasini ilmiy asosda hayotga tatbiq etdi. Taraqqiyotning asosini har qanday jamiyatda ilm-fan tashkil etadi. Bu millatlararo madaniyatda o‘zining xolisona va oqilona xususiyatlari bilan davlat takomillashuviga yo‘nalgan birlik negizida millatlar manfaatlarini himoya qilishga intiladi. Bobdagi ilmiy izlanishlar millatlararo madaniyatning

keng qamrovli, murakkab tizimli yondashuvlar bilan amalga oshishini ta'minlaydi. Milliy davlatchilikning turli millat vakillari g'oyasiga mos tushishi tartibli manfaatlar samaradorligini vujudga keltirib, etnik birliklar jipsligini, barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Mashhur nemis olimi Maks Viber aytganidek, har qanday ijtimoiy jarayonda kamida ikkita shaxs ishtirok etadi[1]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, millatlararo bag'rikenglik — bu subyekt va millatlararo bag'rikenglik obyekti o'rtasidagi o'zaro ta'sir shakli. Subyekt tomondan obyektning ijtimoiy-madaniy (tashqi belgilar, bayonotlar, xulq-atvor xususiyatlari) farqlarini qabul qilishga tayyorligi muhim rol o'ynasa, ijtimoiy subyekt sifatida shaxs, ijtimoiy institut, jumladan, etnik, hamjamiyat, konfessiyaviy hamjamiyat, ijtimoiy guruh darajasida qabul qiladi. Ya'ni, jamiyat uchun bir subyektni emas, ijtimoiy subyekt darajasida millatlararo bag'rikenglikni qabul qilish, rivojlantirish muhim hisoblanadi. Har bir guruhning ehtiyojlari davlat taraqqiyot darajasiga monand holda etnik ko'rinishda jamiyat ravnaqiga yo'l ochib beradi.

Bugungi Yangi O'zbekistonning taraqqiy etgan davr sivilizatsiyasining asosiy qismi qadimgi Turon zaminida paydo bo'lgan Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi Avestodagi milliy madaniyatimizda ham aks etgan. U Markaziy Osiyo sivilizatsiyasini vujudga keltirib, qadimgi Turon sivilizatsiyasi butun Osiyoga tarqalgan. Markaziy Osiyo madaniyati ming yillar davomida davlatimiz sivilizatsiyasining asosiy elementlaridan biri bo'lib kelganligini ko'rishimiz mumkin. Markaziy Osiyo sivilizatsiya markaziga aylangan. O'zbekiston sivilizatsiyasi tarkibining asosiy tomiri sifatida nafaqat zardushtiylik, balki Avestodagi milliy o'zbek madaniyati, balki ular bilan ming yillar davomida birga yashagan xilma-xil o'zbek madaniyati rivojlangan.

Bugungi kunda davlatimiz qomusida davlat dindan, din davlatdan ajratilgan deb ham belgilab qo'yilgan. O'zbekiston bugungi kunda ochiqlik siyosatini olib borish bilan birgalikda demokratik va huquqiy davlatga aylandi, davlat modelini yaratdi. Yangi O'zbekistonning madaniy ohangi, bag'rikenglik madaniyati, millatlararo madaniyati, insonparvarlik va axloqiy poydevori ham islom dinidadir. Xalqimiz millatlararo madaniyatni, axloqiy madaniyatni, bag'rikenglik madaniyatini, saxovatni, insonparvarlikni dinsiz tasavvur qila olmaydilar. "Bugun har bir millat vakili va har bir shaxs o'zligini bilib, milliy kelib chiqishini chuqur anglab idrok etgan holda umumsivilizatsiya taraqqiyotiga hissa qo'shishi lozim"[2, 11]. Bu millatimizning millatlararo madaniyati tarixi qanchalik noyob ekanligini ko'rsatadi. Keyingi yillarda millatlararo madaniyatga oid davlat islohotlari har bir millat vakilining hayotiga to'g'ridan to'g'ri kirib borayotganligini ko'rsatmoqda.

Millatlararo madaniyatni jamiyatning g'oyasiga aylantirish bu nafaqat Yangi O'zbekiston tarixidagi me'yor, balki uning sivilizatsion kengayish missiyasi o'rtasida alohida standartlar mavjudligini ko'rsatadi. "BMT Bosh Assambleyasining yalpi majlisi tomonidan muhim bir hujjat — "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasi qabul qilindi va Yurtboshimiz mazkur rezolyutsiyani qabul qilish tashabbusini 2017–yil sentyabr oyida Bosh Assambleyaning 72-sessiyasida ilgari surgan edi"[3,244-254]. Shu nuqtai nazardan bu taklifni butun dunyo miqyosida qabul qilinishi butun insoniyat ongida millatlararo madaniyatni rivojlantirish dolzarbdir. Yangi O'zbekiston millatlararo madaniyat ming yillik uzluksiz madaniy va siyosiy o'zaro ta'sirda madaniy elementlar asosida qadimdan rivojlangan. Bu madaniy o'zaro ta'sir qadimgi islom madaniyatining rivojlangan davridan beri davom etib kelayotganligini ko'rishimiz mumkin. Boshqacha qilib aytganda, keyingi avlodlardagi millatlararo madaniyatni

endi oddiygina boshqa xalqlarni hurmat qilish asosida o'rganish, deb hisoblab bo'lmaydi. Ularning ongi ijtimoiy makondagi ochiq axborotlar dunyosi bilan cheksizligi, ulardagi salbiy dunyoqarashdan faqatgina immunitet hosil qilish orqali himoyalaniş mumkin.

Yangi O'zbekistonda millatlararo madaniyatning bag'rikenglikka asoslangan holatda axloqiy tafakkur har bir soha va kasblarning tabaqalanishi, shuningdek, e'tiqod ehtiyojlarining cheklashiga yo'l qo'ymasligini ta'kidlashimiz mumkin. Davlatimiz rahbari 2020-yil 25-yanvar kungi Oliy Majlisga murojaatnomasida munosabatini bildirib, jumladan, shunday deydi: "Biz jamiyatda millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik muhitini mustahkamlash borasidagi ishlarni izchil davom ettiramiz. Bu borada 30-iyul — "Xalqaro do'stlik kuni" munosabati bilan yurtimizda birinchi marta "Do'stlik haftaligi"ni va "Do'stlik" xalqaro forum-festivalini o'tkazishni taklif etaman"[4,443]. Millatlararo madaniyat ijtimoiy integratsiyani keltirib chiqarishi va rivojlanib boraveradigan jarayon hisoblanadi. "Natijada o'tgan asrning 80-yillari ikkinchi yarmidan boshlab milliy mustaqillik uchun kurashlar oldini olib bo'lmaydigan ijtimoiy-siyosiy harakatga aylanib, milliy birlikni mustahkamlash uchun bo'layotgan intilishlarga boshchilik qilayotgan yetakchilar atrofida birlashish jarayoni tezlashib ketdi"[5,36]. Shu bilan birga, ijtimoiy miqyosda u nafaqat mojarolarning oldini olishga xalqlarni birlashishga ham olib keladi. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot jarayoni shuni ko'rsatadiki, mamlakatdagi modernizatsiya millatlarni birlashtirib, millatlararo madaniyatning kuchli, barqaror zaminga ega bo'lishiga shart-sharoitlar yaratmoqda. Biroq agar u madaniy rivojlanish strategiyasida o'z o'rniga ega bo'lmasa, uning roli u yoqda tursin, axloq ham yo'q bo'lib ketishi mumkin. "Do'stlik va hamkorlik ruhi – ijtimoiy munosabatlarning insonlararo, davlatlararo va tamaddunlararo aloqalarda namoyon bo'ladigan, ularning uzviyligi va barqarorligini ta'minlaydigan ma'naviy omil bo'lib xizmat qiladi. "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi farmoning 74-maqsadida: Jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlash"[6]. O'zbekistonning yangi davrida millatlararo bag'rikenglik madaniyatini yanada rivojlantirishga qaratilgan kelajak talablariga javob berish uchun, yutuqlar olish uchun ilmiy sohada tadqiqotlar va izchiliklar juda muhimdir.

Millatlararo bag'rikenglik jamiyat va xalqlarning turli omillari o'rtasida yaxshi va ideal yashash tartibi va muhitining mavjudligini anglatadi. "Ko'p millatli davlatlarda ijtimoiy-etnik munosabatlardagi uyg'unlikni ta'minlashda barcha etnik guruhlarining manfaatlarini e'tiborga olish katta ahamiyat kasb etadi"[7,235]. O'zbekistonning millatlararo madaniyatga asoslangan bag'rikenglik jamiyati O'zbekiston taraqqiyotining mafkuraviy an'analariga asoslanadi. O'zbek madaniyatini rivojlanish tarixi aslida millatlararo madaniyatga asoslangan bag'rikenglik tarixidir.

"Barqarorlik, tinchlik, millatlararo totuvlik xalqimizning buyuk ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarini tashkil etadi. Xalqlar o'rtasida tinchlik-totuvlik, do'stlik va o'zaro hamkorlik munosabatlarini o'rnatish millatimizning ongiga, qoniga chuqur singib ketgan. O'zbekiston jahonda tinchlik va xavfsizlikni saqlash, tinchliksevar mamlakatlar bilan har tomonlama hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish hamda taraqqiyotga erishishning o'ziga xos yo'lini tanlagan"[8; 269-B.]. Biz barpo qilmoqchi bo'lgan barkamol jamiyatni, umumiy ma'noda, Yangi O'zbekiston "Taraqqiyot strategiyasi" asosida millatlararo xususiyatlarga ega bo'lgan axloqiy jamiyatni rivojlantirish lozim. "Milliy madaniyatlar bir-birini boyitadi. Ular o'rtasidagi o'zaro ta'sir tabiiy ravishda xalqlar va millatlarning bir-biri bilan iqtisodiy, siyosiy, axloqiy sohalardagi

hamkorligi uzviy bog'liqdir"[9; 302-B.]. Millatlararo madaniyat tushunchasi an'anaviy o'zbek madaniyatining ma'naviy xususiyatlariga chuqur singib ketgan. U nafaqat ijtimoiy tushuncha, balki qadimgi Turon ma'naviy estetikasining tipik ko'rinishidir. Nafaqat o'zining madaniy afzalliklarini saqlab qolishi mumkin, balki turli madaniy an'analar o'rtasida muloqot qilish madaniyatlarning umumiy farovonligini qabul qilish asosida integratsiyaga o'tishdan ko'ra yuqori darajadagi tan olish va tushunishga erishish mumkin. Bunda Yangi O'zbekistonning madaniyatining zamonaviy rivojlanishi, millatlararo madaniyat bilan hamkorlik, tarixiy an'ana va yangilanishlar to'g'risida umumiy qabul qilinadigan yangi tizimni tashkil etadi. Bu ko'nikmalar jamiyatning rivojlanishi va tinchlikparvarlikka ta'siri borligini anglatadi. Bu an'anaviy ma'naviy-axloqiy tizim sifatida turkiy xalqlar madaniyatining muhim qismi sifatida ko'zda tutiladi. O'zbek xalqi bu qarashlar asosida qator vazifalarini rivojlantiradi va millatlararo hamkorlikka, bag'rikenglikka amal qiladi. "O'zbekistondagi turli xalqlar va millatlarning umumiy g'oya va mafkura atrofida birlashishi nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi va O'zbekistonning jahon sivilizatsiyasi tomon rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi"[10,307]. Madaniy qadriyatlar nuqtai nazaridan, dunyoga ergashadigan va hamma narsani o'z ichiga olgan insoniyatning ushbu millatlararo madaniyati o'zbek xalqining tarixiy jarayonida katta uyg'unlik va hayotiylikni namoyish etdi. Yangi O'zbekistonda har bir shaxs o'z-o'zini rivojlantirish ruhi, ma'naviyatli va madaniyatli shaxslarga taqlid qilishdan kelib chiqadi. "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida turli millat yoshlari uchun qo'shimcha qulay shart-sharoitlar yaratish, ularda fuqarolik burchini anglash, vatanparvarlik, bag'rikenglikka asoslangan millatlararo muomala madaniyatini yuksaltirish" [11,14] muhimligini ko'rishimiz mumkin.

Yangi O'zbekistondagi davlat boshqaruvining mohiyati demokratik tamoyillar bilan uyg'un bo'lib, inson xatti-harakatlarining axloqiy me'yori sifatida axloq amalda shakllanishi kerak. Qaysidir ma'noda "mamlakatni odob-axloq bilan boshqarish"ning strategik ahamiyati, bir tomondan, milliy jamoat sohasining "ommaviyligini" qaror toptirsa, ikkinchi tomondan, davlat amaldorlarining ma'naviy ruhini tarbiyalashdan iborat. Axloq o'z-o'zini anglash subyekti, u nafaqat an'anaviy o'zbek madaniyatining merosxo'ri, balki zamonaviy huquqiy davlat qurilishining asosiy bo'g'inidir. Inson subyektivligi axloqiy o'z-o'zini anglashning ichki asosidir. Shu o'rinda taniqli mutaxassis olim Abduxalil Mavrulovning quyidagi fikrlari o'rinalidir; "Shaxsning to'liq shakllanishi uning axloqiylik darajasi bilan bog'liq. Axloqiylik esa har bir insonning o'zi va jamiyat oldidagi burch va mas'uliyatga nisbatan munosabatida aks etadi. Axloqiylikning ayrim ko'rinishlari insonning tashqi harakatlarida namoyon bo'lsa-da, ayni paytda, uning tom ma'nodagi axloqiy sifatleri individning ichki ruhiyatida makon topadi" [12,15]. O'zbekistonda millatlararo madaniyatni takomillashtirishda axloqning o'rni to'g'risida so'z ketganda milliy-madaniy markazlarning ta'sirini to'xtalmaslikning iloji yo'q. Har bir markazning hamfikir taraqqiyotga ishtiroki jamiyat a'zolarining axloqiy dunyoqarashini oshiradi, shu jarayonda millatlararo bag'rikenglikning targ'ibotchisiga aylanadi. Bugun yurtimizda milliy-madaniy markazlar o'zlarining aniq maqsadlariga ega bo'lib, Yangi O'zbekistonning yangicha taraqqiyot darajasi uchun birlashadilar.

Jahondagi xalqlarning madaniy taraqqiy etishi ko'pmillatlilik xarakteriga ega bo'lishi bilan birga xilma-xil sivilizatsiyalar ta'sirida rivojlangan. Bunday falsafiy tafakkur o'zbek xalqiga ham xususiyat sifatida asrlar davomida milliy qadriyatlar shakllanishiga, millatlararo madaniyatning kengayishiga olib kelgan.

1. Dunyodagi madaniy o'zgarishlar madaniyatshunoslikning qonuniyatlari bilan chambarchas holda rivojlanib boradi. Bunday ijtimoiy-falsafiy dunyoqarash turli millat vakillarining hayot darajasida uzluksiz ravishda namoyon bo'lib boradi. Bu me'yor xalqlarning madaniyati bilan belgilanadi. Bu madaniyat Yangi O'zbekistondagi madaniyatning odati va tadrijiy ekanligining yaqqol isbotidir.

2. Bugun davr borgan sari murakkablashib borayotgan ekan, biz millatlararo madaniyatni qanday tushunishni, avvalo, yaxshi anglab yetishimiz darkor. Globallashgan dunyoning qonuniyatlari o'zgarib borayotgan bir paytda xalqlarning o'z madaniyatlarini jahon maydonida saqlab qolishga intilish kuchayib bormoqda. Davlatimizda bu boradagi ishlar jadallik bilan borayotganligi millatlararo bag'rikenglik va hamkorlik tushunchalari almashinuvi hamda boshqa global muammoga yondashuvlarni hal qilishga yordam beradi.

3. Insonlar ongi-tafakkuridagi o'zgarishlar - millatlararo madaniyatni mavjud jamiyatda saqlanib qolishi va rivojlanish tendensiyasiga ta'sir qiladi. Millatlararo madaniyatning ichki rivojlanish motivatsiyasi-jamiyatdan kutilayotgan "umidlar"ning o'zaro ta'sirni shakllantiradi.

4. Millatlararo madaniyatning xalqlar tadrijiyligida yangilanishi o'ziga xos betakror dunyoqarash va ma'naviyatni vujudga keltiradi. Uning axloqiy tamoyillar bilan parallel rivojlanishi ijtimoiy hayotga asos vazifasini o'taydi. Bag'rikenglik shu holatlarning barqarorligini yo'lga qo'yishda davlatlar o'rtasidagi rishta, aloqa va vosita bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Вебер М. Протестантская этика и дух капитализма. <https://www.livelib.ru/22495/top-maks-veber>.
2. Назаров Н.А. Марказий Осиё полиэтник социумида миллатлараро муносабатлар такомиллашувининг фалсафий-функционал тадқиқи. Фалсафа фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. –Б. 11.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимиз розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. –Б. 244-254.
4. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. –Тошкент: 4-жилд, Ўзбекистон, 2020. –Б. 443.
5. Обществёные науки и современность. –Москва: 1991. №8, -С.36.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son 2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
7. Туленов Ж. Диалектика назарияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 2001. –Б. 235.
8. Туленов Ж. Диалектика назарияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 2001. –Б. 269.
9. Фалсафа асослари. Тошкент: Ўзбекистон. 2005. –Б.302.
10. Фалсафа асослари. –Тошкент: Ўзбекистон, 2005. –Б. 307.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son 2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
12. Mavrulov A. Ijtimoiy axloq – yangilanayotgan jamiyat orzusi // “Yangi O'zbekiston” gazetasi, 2023 yil 14 Aprel soni.
13. Xoliqov Y. O. YANGI O'ZBEKISTONDA BAG'RIKENGLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MILLATLARARO ALOQALARINING MOHIYATI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. Special Issue 23. – С. 764-774.
14. Kholikov Y. O. Issues of education of youth on the ethical basis of international culture and tolerance at the age of globalization //Philosophical Readings. – 2021. – Т. 13. – №. 4. – С. 1917-1922.
15. Холиқов Ю. О. Бағрикенглик маданиятнинг моҳияти ва унинг ахлоқий асослари //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 17-21.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).